



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 8-avgust, seshanba,
94 (23.815)-son

**KUN
HIKMATI**

Farzandlarim yaxshi o'qidi, yaxshi ishlarga joylashdi, deb quvonmang. Bu mehnatingizga o'g'il-qizlaringizning odamlarga qilgan xizmati, olgan olqishlari mezon bo'ladi

1913-yil aprel oyidan chiqq boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

Viloyat hokimining QARORI

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining oltinchi chaqiriq sakson to'qqizinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi oltinchi chaqiriq sakson to'qqizinchi sessiyasi **2023-yil 11-avgust kuni** chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-iyuldagi "Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish ishlarini yanada jadallashtirish to'g'risida"gi 294/23-sonli qarori ijrosi yuzasidan "Samarqand hududiy elektr tarmoqlari" AJ raisi U.Nazarov va "Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali boshlig'i A.Muhammadiyevning hisobotlari haqida;

viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari - jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i X.Umarovning 2023-yil I yarim yilligida viloyatda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlar, jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti haqida;

viloyatda 2023-yilning I yarim yilligida davlat va mahalliy budjet daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi to'g'risida viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i B.Mirzayevning hisoboti to'g'risida;

viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i B.Shaymatovning viloyatda joylashgan moddiy madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, asrash va ulardan oqilona foydalanish, muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining but saqlanishi holati yuzasidan axboroti haqida;

viloyat sektor rahbarlarining hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ishlarni tashkil qilish bo'yicha "Yo'l xarita"larini tasdiqlash to'g'risida;

viloyat mahalliy budjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida; xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida; yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash muddatini kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) to'g'risida;

Viloyat hokimi

E.TURDIMOV

2023-yil 4-avgust

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida hukumat komissiyasining viloyatimiz tadbirkorlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda tadbirkorlar Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari B.Valiyev, Biznes-ombudsman D.Qosimov va viloyat hokimi E.Turdimovga o'zlarini qiynayotgan masalalar yuzasidan murojaat qildi.

Masalan, Nurobod tumanidagi "Maroqand sement invest" qo'shma korxonasi vakili tabiiy gaz yetishmovchiligi borasida o'z muammosini bildirdi.

- Korxonamiz uchun oyiga 500 ming kub metr tabiiy gaz limiti ajratilgan, - deydi tadbirkor Rahmon Ahrorov. - Limitni 10 kunda ishlatib bo'lib, qolgan 20 kun ishlamasdan turibmiz. Shu bois limitimizni 1,5 million kub metrga oshirish borasida amaliy yordam berishlaringizni so'rayman. Biz Xitoyga yangi ko'mirga moslashgan



TADBIRKORLAR MUAMMOSI TINGLANDI

uskunalar uchun buyurtma berganimiz. Uskunalar yetib kelib, o'rnatib ishlatgunimizcha, ya'ni joriy yil dekabr oyigacha oshirilgan limitda gaz berilsa, keyin to'liq ko'mirda ishlagga o'tamiz.

Soha mas'ullari tadbirkorning iltimosini qondirishning imkoni borligini,

agar tegishli vazirlikdan qo'shimcha limit berilsa, korxonaga belgilangan muddatgacha ehtiyojiga yetarli miqdorda gaz berilishini aytdi.

- Limit degan narsadan voz kechishimiz kerak, chunki tadbirkorning ishlab chiqarish quvvati ham, gaz sarfi ham aniq, limit esa qaysidir tadbirkor-

ni manfaatini cheklash bo'ladi, - dedi viloyat hokimi. - Shu bois barcha tadbirkorlarga birdek ta'minot qilish kerak. Bu sog'lom raqobatni yaratadi, qolaversa, ishlab chiqarish sifatini ortishiga xizmat qiladi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Dunyo xaritasida bundan 32 yil muqaddam, ya'ni 1991-yil 31-avgust kuni yangi suveren va mustaqil davlat, ko'p millatli O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Shu kundan boshlab mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga tushib oldi va keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Mustaqil taraqqiyotimiz natijasida Vatanimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida butunlay yangi davr boshlandi. Bu davr mobaynida barcha soha va tarmoqlar rivojini yangi bosqichga olib chiqish strategiyasi ishlab chiqildi va bu strategiya izchillik bilan davom etmoqda. Bu mamlakatimizning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasidir. Ayni chog'da esa "O'zbekiston-2030" strategiyasi ishlab chiqilib, muhokama etilmoqda.

BIZ QAYSI YO'LDAN BORYAPMIZ?

(MUSTAQILLIK BAYRAMI ARAFASIDAGI O'YLAR)

Mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasi keng ko'lamli strategiya bo'lib, bugungi kunda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oya asosida davom etmoqda. Uning yo'nalishlariga bir nazar tashlaylik:

Birinchidan, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda, eng avvalo, tadbirkorlikka keng yo'l ochish masalasiga alohida ahamiyat

berilgan. Chunki bu yo'l mamlakatimiz uchun o'ta zarur bo'lgan yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirishga erishishning muhim omiliga aylandi.

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali 2022-2026-yillarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib, aholi jon

boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish vazifasi qo'yilgan. Bunga, albatta, o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi. Buning uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yillik inflyatsiya darajasini pasaytirish kerak bo'ladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Oqqo'rg'onliklarga ish taklif qilindi

Payariq tumanidagi Oqqo'rg'on va Sorisuv mahallalarida "Obod xonodan", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish, hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu dastur doirasida 5-avgust kuni Oqqo'rg'on mahallasidagi 84-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Bo'sh ish o'rinlari" mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

530 xonodan joylashgan mahallada bugun qariyb 3 ming aholi istiqomat qiladi. Aholining asosiy daromadi dehqonchilikdan. Shuningdek, doimiy ish o'rniga ega bo'lmagan ishsiz fuqarolarning ko'pchiligi viloyat markazida qurilish obyektlarida ishlaydi.

- Mahalladagi ko'chalarga asfalt yotqizilib, guzarlar obod bo'lyapti, mahalladoshlarimiz bundan mamnun, - deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Furqat Xolmurodov. - Ammo muammolarimiz shu bilan barham topdi, deb bo'lmaydi. Sababi, mahallada 80 nafardan ortiq ishsiz fuqarolar bor. Endigi asosiy masala ularning bandligini ta'minlash. Bugungi mehnat yarmarkasi ham ayni shu maqsadda tashkil qilindi.

Bu yerda ish qidirayotgan fuqarolar bilan birga, birov kasb-hunarni o'rganishni maqsad qilgan yoshlar ham ko'p. Yarmarkada "Ishga marhamat" monomarkazi, qurilish sohasida malakali mutaxassis tayyorlash maktabi va Samarqand shahridagi ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish markazlari o'zlarining o'quv yo'nalishlari bilan ishtirok etayotgani hunarli bo'lish istagidagi yoshlarga qo'l keldi, deyish mumkin.

- "Ishga marhamat" monomarkazining taklif etayotgan yo'nalishlari bilan tanishdim, - deydi Xalqobod mahallasidan kelgan yoshlardan biri Jasur Rashidov. - O'zim qiziqqan avtomobilsozlik yo'nalishiga hujjat topshirdim. Qisqa muddatda hunarli bo'lish uchun bu yaxshi imkoniyat.

Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limining ma'lumotlariga ko'ra, yarmarkada 120 dan ortiq korxonalar, tashkilot va fermer xo'jaliklari 1200 ga yaqin bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdi. Shuningdek, Oqdaryo, Jomboy, Toyloq, Samarqand tumanlaridan ish beruvchi tadbirkorlar ham ishtirok etdi. Yarmarka davomida Oqqo'rg'on, Sorisuv mahallalari hamda atrof hududlardan kelgan 34 nafar ishsiz fuqaroga o'zlarini tanlagan bo'sh ish o'rinlariga hamda haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'llanmalar berildi.

Sulaymon MARDIYEV.

Samarqandda yana "PUL YOMG'IRI"

Bugunning gap

Bunaqa bema'nilikni qachon bas qilamiz?!

Rost, butun jamoatchilikka, yurtdoshlarimizga murojaat qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Chunki to'ylar bilan bog'liq mashmasha borki, Samarqandda kuzatilyapti. Buning ortidan qaysiki illat ijtimoiy tarmoqda bo'y ko'rsatsa, ko'hna kentga, azim shahrimizga bog'lanyapti.

Yaqinda tarqalgan videolavha esa keyingilarini ham bemalol Samarqandda deyish uchun "imkon" yaratdi. Unda bir "boyvachcha" bir necha taxlam pulni sochib yuborganini tomosha qilish mumkin.

BEFAROSATLIKMI YOKI MAS'ULIYATSIZLIK?

To'ylarda milliy valyutamizni oyoqosti qilingani aks etgan videolavhalar asosan shaharda ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Ularning xatti-harakatlarini oqlab, "orzu-havasli kishilar ekan", deydigani ham topiladi.

Balki pul topib, aql topmaganlardir ular. Nima, boshqa viloyatlarda badavlat kishilar yo'qmi? Borligi aniq, biroq ularning Samarqanddagi boy-

vachchalardan farqi shuki, ularda milliy valyutaga nisbatan hurmat, davlat oldida mas'uliyat bor.

Boshqacha bo'lishi mumkinmas. Zotan, yurtni sevgan, uning ravnaqi uchun o'zida mas'uliyatni his qilgan kishi milliy valyutani oyoqosti qilmaydi.

TO'YLARNI TARTIBGA OLISH SHART

Pul sochish bilan bog'liq hodisa borki to'y va shunga o'xshash ma'rakalarda kuzatilyapti. Avval ham yozganmiz, takror bo'lsa-da, aytish lozim, bu tadbirlarni cheklash haqida parlament palatalarining qo'shma qarori chiqqan. Oradan bir necha yil o'tganiga qaramay, unga amal qilmaganlarga chora ko'rishning huquqiy asosi yaratilmadi.

Buning ortidan turli xurmacha qiliqlar ko'paysa ko'paymoqdaki, butkul chek qo'yilmayapti. Shuning o'ziyoq to'y, ma'raka-marosimlar borasida Senat va Qonunchilik palatasi belgilagan me'yorlarga amal qilmaganlarning "tanobini tortib qo'yish" vaqti allaqachon yetib kelganini ko'rsatadi.

YAXSHI OTGA BIR QAMCHI...

Bu haqda bir kishining savoliga Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning bergan javoblarini bilib qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi.

Xususan, Savollar.islom.uz "saytiga to'ylarda pul sochish yoki uni o'sha yerda raqsga tushayotganlarga berish harommi?" degan savol yo'llangan.

Unga qisqa "Ha, chunki bu harom ishni olqishlash bo'ladi. Gunohga rozi bo'lish gunoh, gunohni olqishlash esa yanada qattiqroq. Vallohu a'lam!", deyilgan. Aslida izohga o'rin yo'q. Faqat xulosa chiqarish, unga amal qilish har kimning o'ziga havola, albatta. Ammo bir necha tanishlarimdag o'zgarishni aytib o'tishni o'rinli deb bildim:

- O'sha savol-javobni o'qiganimdan keyin to'yda cho'ntagimdan mutlaqo pul chiqarmaslikni odat qildim, - deydi ulardan biri. - Raqqosa tugul, yaqinlarim, hatto opam yo onam o'ynaganda ham ularga pul uzatmayman.

Y.MARQAYEV.



Sanoat mahsulotlari

(tegishli yillarning amaldagi narxlarida)

1991-yilda -

4,5 milliard so'mlik,

2022-yil yakuni bilan -

25,8 trillion so'mlik

ishlab chiqarildi.

BIZ QAYSI YO'LDAN BORYAPMIZ?

(MUSTAQILLIK BAYRAMI ARAFASIDAGI O'YLAR)

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Uchinchidan, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish lozim bo'lmoqda.

To'rtinchidan, mavjud energiya resurslari va tabiiy gaz bozorlarini ijtimoiy himoya kafolatlarini belgilagan holda erkinlashtirishga qaratilgan. Sohasi xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini himoya qilish uchun ijtimoiy iste'mol normalarini kiritish masalasi ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Beshinchidan, bizda bunday mahsulotlarning aksariyat qismi uy xo'jaliklarida yetishtiriladi. Shu tufayli yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar hamda aholi o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish masalasi ham kun tartibida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan muhim vazifalarni sirasiga kiradi.

Oltinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyotida geologiya-qidiruv ishlari hajmini keskin oshirish, sohaga xususiy investorlar va ilg'or xorijiy kompaniyalarni keng jalb qilish masalasi ham ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Istiqbolli maydonlarda geologiya-qidiruv va konlarda qazib olish ishlariga shaffof mexanizmlar asosida mahalliy va xorijiy investorlarni keng jalb qilish ishlarini ham tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Yettinchidan, taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish evaziga 2026-yilga kelib, elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kW/h soatga oshirib, jami 100 milliard kW/h soatga yetkazish vazifasi belgilangan edi.

Sakkizinchidan, mamlakatimizda mustaqillik yillari-

da avtomobil sanoatini rivojlantirish borasida tajriba orttirildi. Mazkur sohada kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish masalasida ham tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

To'qqizinchidan, raqamli iqtisodiyotni asosiy "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shu tufayli raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish yuzasidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

O'ninchi, investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish choralarini ko'rilmog'da. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida yangi tizim yo'lga qo'yilmog'da.

O'n birinchidan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda mamlakatimizning eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish ko'zda tutilgan. Bunga erishish uchun tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ishlarga xususiy sektor imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish evaziga uning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish masalasi qo'yilgan.

Quyida avtomobil sanoatini rivojlantirish borasida tajriba orttirildi. Mazkur sohada kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko'paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish masalasida ham tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'n ikkinchidan, taraqqiyot strategiyasida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6500 tadan 15000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 davlatdan 150 taga yetkazish ko'zda tutilgan.

Ushbu vazifalarning bajarilishida turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksporti muhim rol o'ynaydi. Bularni inobatga olib, ushbu sohani 2026-yilga qadar 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSH dollariga yetkazish vazifasi belgilangan.

O'n uchinchidan, iqtisodiyotning drayveri bo'lgan turizm sohasi ham oxirgi yillarda misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Bunda turistik obyektlarni va infratuzilmalarni sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda ularning mamlakatimizda bo'lish muddatlarini uzaytirish maqsadida tarixiy-madaniy, ziyorat, ekologik, etnologik, gastro-nomik, madaniy-ma'rifiy, arxeologik, sog'lomlashtirish va qishloq xo'jalik turizmini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan.

O'n to'rtinchidan, mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ham tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

O'n beshinchidan, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali qishloq aholisi farovonligini oshirishga e'tibor qaratilgan. Bunda dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

O'n oltinchidan, iqlimning global o'zgarishi natijasida kuzatilayotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida suv resurslariga bo'lgan munosabatni o'zgartirish lozim. Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish natijasida kamida 7 milliard kub metr suvni tejash ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, shu tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat'iyligi bilan amalga oshirilgan islohotlar natijasida milliy o'zligimiz, asl qadriyatlarimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz va an'analarimizga asoslangan Yangi O'zbekiston tiklanmoqda, davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o'zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib bormog'da.

Mamayunus PARDAYEV, Murod MUHAMMEDOV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professorlari, iqtisodiyot fanlari doktorlari.

Davr talabidan kelib chiqib, muqobil energiyadan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan hukumatimiz ham bu borada qator imtiyozlar yaratib bermoqdaki, bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qo'payishiga xizmat qilishi kerak.

Biz bu borada mavjud holat va tartib-tamoyillar haqida bilish uchun viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i Aloviddin Inog'omovga murojaat qildik.

Aprel oyidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari uchun soliq imtiyozlari joriy qilingandi. Aytinch, 1-iyul holatiga viloyatda qancha jismoniy va qancha yuridik shaxs bu imtiyozdan foydalandi?

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: IMTIYOZI QANAQA, FOYDALANISH TARTIBI-CHI?

qoplash tartibini soddalashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "E-imtiyoz" dasturi ishga tushirilgan. Imtiyozdan foydalanish uchun yuridik shaxslar shaxsiy kabinetidan ayni dastur orqali murojaat etishi lozim bo'ladi va tegishli hujjatlar (korxonaga guvohnomasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatganlik to'g'risida hujjatlar va kadastr hujjatlari) ni ilova qiladi.

quvvati 0,1 MW va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar, ular foydalanishga joriy etilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga soliqdan ozod qilinadi.



Ma'lumot uchun, viloyatimizda yuridik shaxslar 6,9 milliard so'm yer va mulluk solig'i'ni tiklanuvchidan foydalandi. Qayta tiklanuvchi elektr energiyalari orqali tarmoqqa elektr energiyasi sotib, foyda olish borabida bu foyda uchun soliqdan ham chegirma berilishi kerak edi. Biroq mushtariy-

larimizga ko'ra, bu amaliyot qo'llanilmayapti. Sabab nima?

Viloyatda 313 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchi uskunalar o'rnatilgan. Ushbu korxonalar "E-imtiyoz" dasturi orqali imtiyozlardan foydalanish uchun murojaat qilmagan.

Savol tug'ilishi tabiiy, ushu tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun oigan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'i yuridik shaxslarga qaytariladigan bo'lsa, mahalliy budjetda katta yo'qotish bo'lmaydimi? Uning o'rni qaysi manbalar hisobidan qoplanadi?

Qayd etish lozimki, foyda solig'i mahalliy budjet daromadlarini tashkil etib, imtiyoz qo'llanilishi hisobiga daromad kamayishi aniq. Biroq uning o'rnini investitsiya loyihalarini ishga tushirish hamda kam quvvatda ishlayotgan subyektlarni to'liq ishga tushirish hisobiga qoplanadi.

Y.MARQAYEV suhbatlashdi.

Prezident qaroriga ko'ra

Samarqandda Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining mintaqaviy filiali ochiladi

Davlatimiz rahbarining joriy yil 28-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun tibbiyot kadrlarini tayyorlash hamda sportchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Nukus, Andijon, Buxoro va Samarqand shaharlarida Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining mintaqaviy filiallari tashkil etiladi.

- Hududlarda Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining mintaqaviy filiallari tashkil etilishi sportchilarning jismoniy holati va rivojlanishini doimiy nazorat qilib borish, ulardagi o'tkir, surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash imkonini beradi, - deydi viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi sport ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Bahodir Berdiqulov. - Ayniqsa, sport-ta'lim muassasalari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida sportchilarning kasallik va jarohatlarini davolash, bir yilda ikki marta chuqurlashtirilgan tibbiy

tekshiruvdan o'tkazish, shuningdek, ularga maxsus hamda kompleks tezkor tibbiy xizmatlar ko'rsatish ularning professional faoliyatiga ko'maklashishda yordam beradi. Qarorga muvofiq, viloyat hokimligi tomonidan bir oy muddatda Yoshlar siyosati va sport vazirligi bilan birgalikda Samarqand shahridagi davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan bino xatlovdan o'tkaziladi. Shuningdek, markazning mintaqaviy filiallarini tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish, uch oy muddatda mintaqaviy filiallarning faoliyatini yo'lga qo'yish uchun zarur jihozlar hamda tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash chorolari ko'riladi.

Besh mingta sport maydonchasi tashkil etiladi

Joriy yil 28-iyulda Prezidentning "Mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida g'olib va sovrindor bo'lgan hamda hududida sport infratuzilmasi mavjud bo'lmagan mahalla terma jamoalari uchun 2030-yilgacha 5000 ta sport maydonchalarini tashkil qilinadi. 2023-yil 1-avgustdan olis va chekka hududlarda joylashgan mahallalar hamda maktablar hududida qurilgan sport maydonchalari ular joylashgan hududiga qarab tegishliligi bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimiga o'tkaziladi. Sport maydonchalarining joylashuv hududidan qat'i nazar (ta'lim tashkilotlari hududida darsdan tashqari vaqtlarda), barcha fuqarolar uchun foydalanish bepul bo'ladi va vaqti chegaralanmaydi. Sport maydonchalaridan samarali va maqsadli foydalanilishi mahallalardagi yoshlar yetakchilari va profilaktika inspektorlari tomonidan muvofiqashtiriladi.

Zukko kitobxonlar taqdirlandi



Yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlash, fikrlesh doirasini kengaytirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish va ularni kitob mutolaasiga jalb etish maqsadida "Zukko kitobxon" tanlovini o'tkazish an'anaga aylandi.

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida mazkur tanlovning viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tanlovning tuman (shahar) bosqichida g'olib bo'lgan 16 jamoa kitobxonlik salohiyatini sinovdan o'tkazdi. Tanlov nizonigiga ko'ra, qatnashchilar iyul oyida o'qish uchun tavsiya qilingan Is'hoqxon To'ra Ibrat hamda Abdulhamid Cho'iponning "Jadidlar" to'plamidan, Malkolm Gladuelning "Zukkolar va Landovurlar" asari yuzasidan berilgan savollarga javob qaytardi. Tanlov natijasiga ko'ra, Ishtixon tumani jamoasi birinchi o'rinni egalladi va 6 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Ikkinchi o'rinni egallagan payariqlik yoshlarga 4,2 million va uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan Paxtachi tumani yoshlarga 3 million so'm pul mukofoti topshirildi.



MUALLIM YON DAFTARIDAN

Negadir, hamma aqlidan emas, xotirasidan shikoyat qiladi. ***

Kambag'allik ayb emas, kambag'allikka ko'nikish ayb. ***

Hurmat ko'rsatishni avvalo, o'zingdan boshla. Ostonaga qadam qo'yishdan oldin kalishingni o'nglab yech.

Xudoyberdi KOMILOV, Urgut tumani.

4-5-avgust kunlari Samarqand shahrida xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari deputatlari o'rtasida sportning voleybol, badminton, mini-futbol va tennis turlari bo'yicha Oliy Majlis Senati raisi kubogi uchun "Parlament o'yinlari" sport musobaqalarining viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqada sportning voleybol turidan Bulung'ur tumani jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, ayollar o'rtasidagi badminton bellashuvlarida Kattaqo'rg'on tumanidan Nigora Shodiyeva 1-o'ringa loyiq deb topildi. Mini-futbol bahsida ham bulung'urliklar barcha raqiblaridan ustun kelib, g'alabaga erishdi. Tennis bo'yicha erkaklar o'rtasida

MAYDONDA DEPUTATLAR



paxtachilik Jasurbek Qurbonov, ayollar o'rtasida Samarqand shahridan Ozoda Nazarova g'olib bo'ldi.

Musobaqa yakunida g'oliblarga diplom va esdalik sovg'alar topshirildi. **Jasurbek SHUKUROV.**

Muallim kundaligiga

Jismoniy nuqsoni bor o'quvchilar bilan qanday ishlaysiz?

Ko'pincha ota-onalar farzandini maktabga berayotganda undagi ba'zi jismoniy nuqsonlarni aytib o'tishni joiz deb bilmaydi. Vaholanki, o'qituvchi bu holatni o'z vaqtida bilsa, bolaning ta'lim olishi uchun qulayroq sharoitlarni yaratishi lozim. Yoki ba'zi pedagoglar jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga kerakli e'tibor bermaydi, buni o'z vazifasi deb bilmaydi. Aslida har bir o'qituvchi inkluziv ta'lim va uning jarayonlaridan boxabar bo'lishlari shart.

Xo'sh, o'zi "inkluziv ta'lim" nima? "Inkluziv ta'lim" - bu (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inklusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Ushbu jarayon o'zining quyidagi huquqiy, ijtimoiy asoslariga ega bo'lmog'i zarur. Ya'ni, har bir bola ta'lim olish uchun asosiy huquqqa ega va kerakli darajada bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, har bir bola o'z xosliklariga, qiziqishlariga, qobiliyat va o'quv ehtiyojiga ega. Barcha yoshdagi bolalar atrofida yashayotgan va ishlalotgan bolalar bilan bir xil sharoitda o'qishlari va kamol topishlari zarur.

Afsuski, umumta'lim maktab o'quvchilari orasida o'quv dasturlarini o'zlashtirishda qiyinchilikni boshdan kechirayotgan bolalar ko'p. Bunday bolalarda eshitishta, ko'rish qobiliyatida, nutqiy va aqliy faoliyatida nuqsonlar paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtda bunday bolalarni o'z sog'lom tengqurlari qatorida umumta'lim maktablarida o'qitishni inkluziv ta'limi yo'lga qo'yilmoqda. Umumta'lim maktablaridagi nuqsonli o'quvchilarning inkluziv ta'limini tashkil qilishda o'qituvchilar nimalarga e'tibor berishlari lozim? Quyida ayrim nuqsonli o'quvchilarning umumta'lim maktablarida nimalarga e'tibor berishi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Eshitishi zaif bolalarning yetarli savod olishlari uchun o'qituvchilar avvalo, qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarni nutqida, ruhiyatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida

bilishlari lozim. Bolaning eshitish qobiliyati darajasini bilish maqsadida zarur bo'lsa, davolash uchun mutaxassis otorinologolog oldiga yuborish lozim. Eng muhimi, sinfda qulog'i uncha yaxshi eshitmaydigan bola borligini hamisha esda tutish va bunday bolalarni birinchi partaga o'tqazib qo'yish kerak. O'qituvchi sinf o'quvchilariga mavzuni tushuntirayotganda, diktant matnini o'qiyotganda o'quvchini mavzuni qanchalik fahmlaganini sezishi, ko'rishi lozim. Qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarning ishini baholayotganda, xatolar sifatini tahlil qilganda, qulog'i yaxshi eshitmasligi tufayli xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, bahoni pasaytirmaslik lozim.

O'qituvchi bolaning ota-onasiga bolaning o'qishda uchraydigan qiyinchiliklarining xususiyatlarini, o'quvchiga uy topshiriqlarini tayyorlashda qay tariqa to'g'ri yordam ko'rsatishi kerakligini tushuntirishi kerak. Nutqida kamchiligi bor o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi zarur. Noto'g'ri talaffuz qiladigan o'quvchilarga alohida e'tibor qilish hamda logoped mutaxassisidan maslahat olishlari kerak.

Bolaning o'qish va yozishdagi xatolari uchun past baho qo'yib ranjitmaslik, unga dalda berish, uning xulq-atvoridagi ijobiy jihatlarga tayanish, unga qiyinchiliklarni bartaraf qilish mumkin degan fikrni singdirish muhimdir. Ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi lozim: agar sinfda ko'zi yaxshi ko'rmaydigan o'quvchi bo'lsa, birinchi navbatda, ota-onasiga murojaat qilib, uni ko'z vrachiga ko'rsatishni tavsiya qilish kerak. Ba'zida ota-ona bolaning ko'zi o'z qizligini yashirishga harakat qiladi. Oddiy maktab sharoitida ko'zga zo'r berish qanday oqibatlarga olib kelishini o'ylamaydilar. O'qituvchi bu tomonlarini ham

ota-onalarga tushuntirib o'tishi lozim; ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalarni o'z vaqtida aniqlamaslik ularning ulgurmasligiga, so'ngra esa ta'lim-tarbiyadagi buzilishlarga olib kelibgina qolmay, balki busiz ham ko'zdagi nuqsonni yanada og'irlashtirib yuborishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuni unutmash kerakki, umumta'lim maktabi o'quvchisi uchun oddiy bo'lgan ko'pgina mashg'ulotlar masalan, egilish, qattiq sakrash, jismoniy tarbiya darsida og'irliklarni ko'tarish kabilar ham bolaning ko'rish qobiliyatiga zarar yetkazishi mumkin. O'qituvchi sinfda ko'zi ojiz borligini nazarda tutgan holda bunday bolalar uchun alohida ko'rgazmalar tayyorlab, dars o'tishi lozim.

Bolaning ko'rish qobiliyatini himoya qilish uchun ota-onalar bilan hamkorlikda ko'zoynak taqishni tashkillashtirish kerak. Shuningdek, jismoniy nuqsoni bo'lgan bolalarga tengdoshlarining to'g'ri munosabatini shakllantirishda ham o'qituvchining roli katta. Deylik, sinfdoshlarining unday bolalarga masxaromuz munosabatiga yo'l qo'ymaslik, unga to'g'ri yondashuvni tashkil etishda bu bolalarga ba'zi liderlik etaklarni berish, turli tanlovlarida unga ko'proq imkoniyat yaratish yaxshi natija beradi.

Inkluziv ta'limni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab, mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa, albatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, ya'ni inkluziv ta'limning samarasi yuqori darajada bo'ladi.

Muhayyo YOQUBJONOVA, viloyat pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
С АМАРКАНДСКИЙ
В ЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 364 nusxada chop etildi. Buyurtma 425. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.HAYDAROV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda